



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

O'ZBEK TILI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI TERMINLARIDA ANTONIMIYA MASALALARI

Xidirov Otabek Jo'raboyevich
(PhD), dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o'zbek tili axborot texnologiyalari terminologiyasida antonimiya hodisasi leksik-semantik va pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda axborot texnologiyalari sohasida qo'llaniladigan antonim terminlarning shakllanish manbalari, kontrar va komplementar turlari, ularning foydalanuvchi interfeysi va texnik matnlardagi funksional xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: antonimiya, axborot texnologiyalari terminlari, leksik-semantik munosabatlar, kontrar antonimlar, komplementar antonimlar, pragmatika.

ISSUES OF ANTONYMY IN UZBEK INFORMATION TECHNOLOGY TERMINOLOGY

Xidirov Otabek Jo'raboyevich
(PhD), Associate Professor, Jizzakh State Pedagogical University

Annotation

This article analyzes the phenomenon of antonymy in Uzbek information technology terminology from lexical-semantic and pragmatic perspectives. The study examines the formation sources of antonymic terms in the IT field, their classification into contrar and complementary antonyms, and their functional roles in user interfaces and technical texts.

Keywords: antonymy, information technology terminology, lexical-semantic relations, contrar antonyms, complementary antonyms, pragmatics.

ПРОБЛЕМЫ АНТОНИМИИ В ТЕРМИНОЛОГИИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Хидиров Отабек Джурабоевич
(PhD), доцент, Джизакский государственный педагогический университет

Аннотация.

В статье рассматривается явление антонимии в терминологии информационных технологий узбекского языка с лексико-семантической и прагматической точек зрения. Анализируются источники формирования антонимических терминов, их классификация на контрарные и комплементарные антонимы, а также функциональные особенности в пользовательских интерфейсах и технических текстах.

Ключевые слова: антонимия, терминология информационных технологий, лексико-семантические отношения, контрарные антонимы, комплементарные антонимы, прагматика.

Bugungi kunda leksik-semantik munosabatlar nafaqat an'anaviy leksikologiya doirasida, balki kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, kognitiv tilshunoslik, terminologiya kabi yangi yo'nalishlar doirasida ham chuqur o'rganilmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt va avtomatik tarjima tizimlarining rivojlanishi leksik-semantik tahlillarning dolzarbligini oshirmoqda.

R.Safarovaning ta'kidlashicha, hali til birliklarini yaxlit tizim sifatida o'rganish, system tilshunoslik va uning tadqiqot metodlari to'la takomillashmagan bir davrda sistem xarakteri, tilshunoslikka bag'ishlangan dastlabki yirik tadqiqotlarda namoyon bo'la boshlashi, til leksik qatlamlarining system xarakterga ega ekanligi, uzoq davrlar davomida bahs-u munozaralarga sabab bo'lib kelgan bo'lsa hamki, sinonim va antonimlarning alohida-alohida leksik-semantik guruhlar sifatida ajratilishi tilshunoslarda hech qanday shubha uyg'otmadi.

Dunyo tilshunosligida til birliklarining ma'no tomonini semantik jihatdan asoslash, ularning lingvistik qonuniyatlarini ishlab chiqish va imkoniyatlarini aniqlashga doir bir qator tadqiqotlar olib borildi. O'zbek tilida o'zaro zidlash munosabatini ifodalovchi vositalarni leksik va grammatik birliklar doirasida hamda lingvistik tadqiqot metodlari asosida o'rganish muammosi qo'yildi. Qarama-qarshilik, zidlash kategoriyasining o'rganilishi antik davrlarga borib taqaladi. Ushbu hodisani o'rgangan Jahon va rus tilshunoslariga misol tariqasida M.Lesnik, L.Maksimov, A.Kireyev, G.Lukina, A.Ufimseva kabilarni keltirish mumkin.

O'zbek tilshunosligida antonimiya hodisasi haqidagi ilk-nazariy qarashlar S.Mutallibov va S.Usmonovlarning maqolalarida aks etgan bo'lsa, keyinchalik ushbu masala R.Shukurov, B.Isabekov hamda I.Abdurahmonovlar tomonidan monografik tarzda tadqiq etilgan. Shuningdek, M.Mirtoiyev, D.Abdullayeva, Y.Odilov, F.Jumayeva singari olimlar ushbu mavzuda tadqiqot olib borgan.

Sh.Rahmatullayev o'zining Hozirgi adabiy o'zbek tili qo'llanmasida antonimik munosabat to'g'risida mufassal ma'lumotlarni keltirgan. Xususan, "Sinonimik munosabatda bo'lganidek, antonimik munosabatda ham leksik ma'noga asoslanadi. Bir ma'noli leksemalarda to'g'ridan to'g'ri leksema bilan leksema antonimiyasi haqida gapirish mumkin, masalan, adabiy tildagi pakana – novcha leksemalarida bo'lgani kabi".

Z.Xolmanova o'zaro qarama-qarshi ma'noli so'zlar antonimlar deyiladi. So'zlarning bunday munosabati antonimiya deyiladi degan ta'rifni keltiradi. Shuningdek, u antonimlarni 3 xil belgiga ajratadi.

Tilshunoslar tomonidan lisoniy ziddiyat bir necha tomondan tasniflangan, xususan, R.Sayfullayeva boshqalarning hammuallifligidagi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan darslikda lisoniy ziddiyatning quyidagi turlari ko'rsatib o'tilgan:

1. Ziddiyat tizimda tutgan o'rniga ko'ra;
 2. Ziddiyat a'zolarining o'zaro munosabatiga ko'ra;
 3. Turli vaziyatda ziddiyatning amal qilishiga ko'ra.
- D.Nurmanova esa lisoniy ziddiyatlarni quyidagicha tasniflaydi:

1. Zidlanish sistemasiga ko'ra:
 - 1.1. Miqdoriga ko'ra: bir o'lchovli, ko'p o'lchovli;
 - 1.2. Qo'llanish darajasiga ko'ra: ajralgan, proporsional;
2. Zidlanuvchi a'zolar o'rtasidagi munosabatga ko'ra: xususiy, darajali, teng huquqli;
3. Zidlanuvchi a'zolarining ma'no farqlash kuchiga ko'ra: doimiy, mo'tadillashgan.

O'zbek tilida axborot texnologiyalari bilan bog'liq antonimik munosabatlar o'ziga xos leksik-semantik hodisa sifatida shakllanmoqda. Ular asosan tarjima orqali yoki sohani o'zlashtirish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri kirib kelmoqda. Bu jarayonda ba'zi antonimlar an'anaviy o'zbek tilidagi juftliklar bilan almashitirilmogda, boshqalari esa inglizcha shaklida qo'llanilmoqda. Bu holat o'zbek tili lug'aviy tizimida yangi semantic qatlamning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli, axborot texnologiyalariga oid antonimik birliklarni tizimli o'rganish va ularni o'zbek tilining tabiiy taraqqiyoti doirasida shakllantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Axborot texnologiyalari – ma'lumotlarni boshqarish va qayta ishlash texnologiyasi ekanligini, odatda mazkur atama ostida kompyuter texnologiyalari tushunilishini hisobga

oladigan bo'lsak, ularda antonimik munosabatlar uchratish mumkin. Axborot texnologiyalari sohasida axborotni EHM(elektron hisoblash mashinasi) va kompyuter tarmoqlari orqali yig'ish, saqlash, himoyalash, qayta ishlash, uzatish kabi amallar ustida ishlar olib boriladi.

Ushbu tushunchalarga oid atamalarni tadqiq etar ekanmiz, o'zbek tili axborot-texnologiyalari terminlarida antonim birliklarning turlari haqida to'xtalishni joiz deb bildik.

Tilshunoslikda antonimlarni yuzaga keltirish bo'yicha munozarali fikrlar borligini aniqladik. Xususan, ayrim manbalarda opa va singil, aka va uka kabi so'zlarni antonim sifatida tanlab olishadi, lekin shu bo'yicha ilmiy ish olib borgan B.Isabekov esa ularni antonimlar emas, balki korrelativ so'zlar degan fikrni ilgari suradi.

Antonimiyani belgilashda Sh.Rahmatullayev, N.Maniatov, R.Shukurovlar tomonidan ilgari surilgan mantiqiy markaz tamoyiliga tayanish samarali natija beradi. Mazkur tamoyilga ko'ra ikkita ma'no o'rtasidagi mantiqiy markaz aniqlanadi va shu markazning ikki tomonidan o'rin olgan tushunchalar o'zaro antonimik munosabatlarda birlashadi. Masalan, kuz bilan bahor orasida qish bor, shunda kuz va bahor leksemalari o'zaro antonim sifatida qaraladi, lekin kuz va qish antonimlar emas, chunki bu ikki leksema orasida oraliq tushuncha mavjud emas.

Shu nuqtayi nazardan o'zbek tili axborot texnologiyalari (AT) terminologiyasida antonim birliklar turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bu birliklar texnik vositalarni boshqarish, foydalanuvchi interfeysi bilan ishlash, dasturiy ta'riflar, amallar ketma-ketligi kabi sohalarda qarama-qarshi ma'nodagi tushunchalarni ifodalashda xizmat qiladi.

Xususan, axborot texnologiyalari sohasida terminlar nafaqat atamalar tizimi sifatida, balki foydalanuvchining texnik vosita bilan muloqotini tashkil etuvchi asosiy vosita sifatida ham xizmat qiladi. Ayniqsa, qarama-qarshi ma'nodagi terminlar(antonim birliklar) texnik vositalarni boshqarishda muhim funktsiya bajaradi. Ular foydalanuvchiga amalga oshiriladigan harakatlar doirasini to'g'ri aniqlash va tanlash imkonini beradi.

Texnik qurilmalar va dasturiy vositalarning foydalanuvchi interfeysida antonimlar ko'pincha qarama-qarshi harakatlarni bildiruvchi buyruqlar shaklida ishlatiladi. Masalan, yoqish – o'chirish, yuklab olish – yuborish (odatda, ushbu birliklar ingliz tilidagi download – upload so'zlari bilan ifodalanadi). Ochish – yopish (dastur yoki faylni ochish/yopish. Faollashtirish – Faolsiz holatga o'tkazish (ingliz tilidagi enable – disable birliklari bilan ifodalanadi. Bu holatda biror ish holatidagi funktsiyani ishga tushirish – to'xtatish ma'nosida keladi).

Qurilmaning ish holatini anglatuvchi terminlar ko'pincha antonim shaklida bo'ladi va bu foydalanuvchiga mos harakatni tanlashga yordam beradi. Bunday holatda zidlanish qo'shimchalar antonimligida uchratish mumkin. Masalan, faol – nafaol, to'g'ri – noto'g'ri, xavfsiz – xavfli. Bunda B.Mengliyev ta'biri bilan aytganda, antonimlar sturkturasiga ko'ra 2 turga bo'lib o'tgan, ya'ni har xil o'zakli antonim: katta – kichik, kirmoq – chiqmoq, muhabbat – nafrat; bir xil o'zakli antonim: madaniyatli – madaniyatsiz, aqli – aqlsiz, ongli – ongsiz. Holatdan kelib chiqib ta'kidlash joizki, tahlil qilingan axborot texnologiyalari tushunchalarining aksariyati strukturasiga ko'ra bir xil o'zakli antonimlarni tashkil qiladi.

B.Mengliyev shu o'rinda antonim leksemalar bir turga kiruvchi giponim leksemalar sifatida issiq-sovuq, katta-kichik, erkak-ayol kabi qarama qarshiliklarni keltirib o'tadi. Shu o'rinda olim antomlarning mantiqiy asosini ikki tur qarama-qarshilik tashkil etishini belgilab bergan: a) kontrar qarama-qarshilik; b) komplementar qarama-qarshilik.

Axborot texnologiyalari (AT) sohasidagi terminlar tizimida ko'plab antonim juftliklar umumiy bir semantic guruhga tegishli bo'lgan giponimik munosabatlar asosida tashkil topgan. Boshqacha qilib tushuntiradigan bo'lsak, bunday antonimlar ma'lum bir giperonim (umumiy tushuncha) doirasida turli yo'nalishdagi harakat, holat yoki xususiyatlarni

ifodalaydi. Gipernonim – umumiy tushuncha bo'lsa, giponimlar esa shu umumiy tushunchaning aniq turlari. Ma'lumotlarni boshqarish amallari – bu umumiy tushuncha va uning tarkibiga kiruvchi yuklash, saqlash, o'chirish kabi so'zlar esa konkret tushunchalardir.

Shu holatga yana bir misollar keltiradigan bo'lsak, foydalanuvchi amalini belgilash umumiy gipernonimi tarkibida kirish – chiqish (login - logut), faollashtirish – bloklash kabi axborot texnologiyalari so'zlari o'rtasida antonim giponim munosabatlarni kuzatish mumkin.

AT terminologiyasida antonim leksemalar ko'pincha bir semantic maydonga tegishli bo'lgan giponim birliklar sifatida namoyon bo'lishini kuzatdik. Bundan tashqari ushbu giponim birliklar muayyan umumiy tushunchaga bo'ysunishi, har bir amal yoki holat o'z zidligini aniq ifodalashi, foydalanuvchiga mantiqiy juftliklar orqali harakatlariga yo'naltiruvchi belgilar orqali qulaylik yaratishga xizmat qiladi.

B.Mengliyev ilgari surgan kontrar va komplementar antonimlik bo'yich AT tushunchalarini tahlil qiladigan bo'lsak, avvalombor, kontrar antonimlar bular ikki leksik birlik o'zaro mutlaqo zid bo'lib, ular orasida oraliq zidlanishga oid tushunchalar mavjudligidir. Boshqacha aytganda, bunday birliklar bir vaqtning o'zida biror obyektida mavjud bo'la olmaydi, lekin oraliq boshqichlar orqali o'tadi. Masalan, issiq – sovuq bu ikki so'z o'rtasida mutlaqo zidlanish mavjud, lekin ular orasida iliq – salqin kabi oraliq darajalar ham mavjud.

Axborot texnologiyalariga oid tushunchalarda kontrar antonimlik quyidagi xususiyatlarga ega:

- Bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan ziddiyatlar qatorida uchraydi. Masalan, tez – sekin – oraliqda esa o'rtacha so'zi mavjud;

- Holat, sifat, rejim, rejali amallarda keng qo'llaniladi;

- Biror holatdagi o'zgaruvchanlik yoki foydalanuvchi tajribasini belgilab beradi.

Axborot texnologiyalarining kontrar antonimlarini keltirishdan oldin ularni mavzuviiy guruhlariga qaror qilindi:

- a) axborot texnologiyalarning ishlash holatidagi terminlar;

- b) axborot texnologiyalarning tezlik va vaqtga oid holati bo'yicha terminlar;

- c) sifat va qiymatga oid terminlar;

- d) tashqi ko'rinishga oid terminlar.

Shular orasidan AT sohasida ishlash holatiga oid kontrar antonimlarga misol keltiradigan bo'lsa, ushbu misollar, asosan, kompyuter tizimlari, dasturiy ta'minot va foydalanuvchi interfeysi terminlariga tegishlidir.

1-jadval

Antonim terminlar		Oraliq terminlar	Inglizcha ekvivalenti
Ishga tushgan	To'xtatilgan	vaqtincha to'xtab turgan	Running – stopped
Doimiy	Vaqtinchalik	Rejali vaqt oralig'i	Permament – temporary
Foydalanuvchi faol	Foydalanuvchi nofaol	Sessiya muddati tugagan	Logged in – logged out
Tarmoq ulangan	Tarmoq uzilgan	Signal zaif	Connected – disconnected
Interaktiv	Statik	Qisman interaktiv	Interactive – static
Ochiq port	Yopiq port	Filtrovchi rejim	Open port – closed port
Jonli efir	Yozib olingan efir	Kechiktirilgan uzatish	Live – recorded

Real vaqt rejimi	Kutish rejimi	Kechikkan, buferlangan holat	Real-time – waiting mode
------------------	---------------	---------------------------------	-----------------------------

Keltirilgan antonimlar orasida bir nechta oraliq holatlar mavjud bo'lishi mumkin. Ushbu terminlar ko'pincha axborot texnologiyalarning grafik interfeysda belgilovchi elementlar, holat indikatorlari, xatolik haqida ogohlantirishlar va diagnostika vositalarida ishlatiladi.

Xuddi shunday axborot texnologiyalarida tezlik va vaqtga ta'sir qiluvchi kontrar antonimlarni ham uchratish mumkin. Ushbu antonim juftliklar, odatda, axborot texnologiyalari tizimi samaradorligi, ish tezligi, ishlov berish vaqti yoki foydalanuvchi tajribasini ifodalashda keng qo'llaniladi:

Yuqori – past tezlikdagi internet – bu umumiy antonim juftliklar va oraliq termini sifatida o'rtacha tarmoq tezligi ingliz tilida esa high – low speed internet tarzida shu antonim birlikning ekvivalenti keltirilgan.

Demak, ta'kidlash mumkinki, kontrar antonimlar AT terminologiyasida keng uchraydi. Oraliq tushunchalarning mavjudligi ularni komplementar antonimlardan farqlaydi. Kontrar antonimlar orasida gradiyent o'zgarish mavjud, ya'ni tez - o'rtacha – sekin. Bundan tashqari kontrar antonimlar tizimli semantic munosabatni tashkil etadi. Tushunchalarning darajalanishini ifodalovchi sifatida qarash ham to'g'ri bo'ladi. Bu antonimlar graduonimiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, foydalanuvchiga va dasturiy tizimga aniq baho berish imkonini yaratadi. AT sohasida kontrar antonimlarning o'rganilishi leksik-semantik munosabatlarda muhim o'rin egallaydi. Bundan tashqari kompyuter lingvistikasi, kognitiv tilshunoslik va terminografiya uchun zarurdir. Ularning to'g'ri tahlil qilinishi terminlarning standartlashuvi, platformalararo birligini saqlash va foydalanuvchilarga tushunarli interfeys yaratish uchun muhim.

Komplementar antonim to'g'risida to'xtaladigan bo'lsak, qarama-qarshi tushuncha bo'lib, ular o'rtasida oraliq so'z bo'lmadi, ya'ni biror narsa yoki A holatda yoki B holatda bo'ladi. Uchinchi oraliq so'zlar mavjud emas. Axborot texnologiyalarida bunday antonimlar, ayniqsa, holatlarni aniqlovchi signal, funksional faollik, ruxsat berish yoki taqiqlash, yoqilgan yoki o'chirilgan kabi mazmundagi holatlarda keng qo'llaniladi.

Valid user (mavjud foydalanuvchi) – invalid user (mavjud bo'lmagan) antonim juftligida o'rtada hech qanday tushuncha mavjud emas, ya'ni mutloq antonim sifatida qarash maqsadga muvofiq. Bunday antonimlar binarlik xususiyatiga ega, faqat ikkita holati mavjud. Ular ko'pincha Boolean (true-false (rost-yolg'on)) xususiyatlar sifatida tizimlarda ishlatiladi. Semantik jihatdan birinchi holat mavjud bo'lsa, ikkinchi holat bo'lmasligi tabiiy va aksincha bo'lishi ham mumkin.

Komplementar antonimlar o'zaro inkor munosabatda bo'ladi, ya'ni birining mavjudligi boshqasining mavjud emasligini bildiradi. Ular “ha” yoki “yo'q”, “bor” yoki “yo'q” tarzidagi mantiqiy oppozitsiyaga tayanadi. Mazkur antonimlar ko'pincha ismlarda ifodalanadi, sifat va fe'l shakllarda kamroq uchraydi.

Axborot texnologiyalari (AT) terminologiyasi tili o'zining aniqligi, qisqaligi va tizimlilik bilan ajralib turadi. Shu sababli, antonomiya – ya'ni qarama-qarshi ma'nodagi terminlarning mavjudligi va ularning shakllanish usullari, ushbu soha tilining semantik qatlamida muhim o'rin egallaydi. Antonim terminlar AT diskursida foydalanuvchi harakati, tizim holati, operatsiya turlari va protokol funksiyalarini ifodalashda faol qo'llaniladi.

Ko'plab antonimik terminlar oddiy lug'aviy asosda, ya'ni o'zaro qarama-qarshi semantik ma'noga ega juftliklar sifatida mavjud. Axborot texnologiyalari o'zbek tiliga ingliz

va rus tilidan kirib kelganligini inobatga olib, quyidagi jadvalda terminlarning inglizcha shaklini ham taqdim etishga qaror qildik.

2-jadval

Inglizcha termin	Ma'nosi (o'zbekcha)	Antonimi	Qarama-qarshi ma'nosi (o'zbekcha)
Online	Tarmoqqa ulangan	Offline	Tarmoqdan uzilgan
Upload	Ma'lumot yuborish	Download	Ma'lumot olish
Input	Kiritish	Output	Chiqarish
Open	Ochish	Close	Yopish

Bu terminlar bir-biriga qarama-qarshi harakat, yo'nalish yoki holatni bildiradi. Leksik antonimlar ko'pincha kompyuter dasturlari, internet aloqasi, ma'lumot almashinuvi jarayonlarida ishlatiladi.

AT terminlarida antonimlar ko'pincha ingliz tilida keng qo'llaniladigan old qo'shimchalar orqali hosil qilinadi. Bu shakllanish morfologik antonimiya deyiladi.

3-jadval

Inglizcha termin	Prefiksli antonimi	O'zbekcha tarjimasi
Install	Uninstall	O'rnatmoq / o'chirmoq
Lock	Unlock	Qulflash / qulfdan chiqarish
Connect	Disconnect	Ulanmoq / uzilmoq
Encrypt	Decrypt	Shifrlash / deshifrlash
Enable	Disable	Faollashtirish / nafaol qilish

E'tibor bergan bo'lsangiz, bunday hodisa o'zbek tiliga AT terminlari orasida ham uchraydi, qolaversa, orqa qo'shimchalar orqali antonimik munosabatni hosil qilinishini kuzatishimiz mumkin.

Bunday juftliklar odatda, biror tizim holatining mavjudligini yoki yo'qligini, biror amalning amalga oshirilishi yoki bekor qilinishini bildiradi. Ular intuitiv va tizimli bo'lib, AT tili iqtisodiyli va aniqligini ta'minlaydi.

Bir necha komponentli birikmalar orasida ham antonimik munosabatlar mavjud. Ular odatda bir xil so'zning sifat, modal yoki affiksli turlicha shakllari orqali hosil bo'ladi:

Ruxsat etilganlar ro'yxati - taqiqlanganlar ro'yxati. Tarmoq xavfsizligi va filtratsiya tizimlarida ishlatiladi. "Oq ro'yxat – qora ro'yxat" deb ham yuritiladi. Foydalanuvchiga manbaga ruxsat berilgan yoki taqiqlangan holatlar uchun ishlatiladi.

Xavfsiz rejim – xavfli rejim - tizim muammolarni bartaraf etish uchun xavfsiz rejimda ishga tushiriladi. Bu foydalanuvchiga muammosiz kirishni ta'minlaydi. Qarama-qarshi holat — xavfsiz bo'lmagan rejim, ya'ni tizim to'liq rejimda, lekin muammoli holatda ishga tushgan bo'ladi.

Statik IP manzil – dinamik IP manzil - tarmoqdagi qurilmaga doimiy IP manzil berilishi (statik) yoki o'zgaruvchan IP manzil avtomatik belgilanadigan (dinamik) holatni bildiradi.

Bunday antonimiya birliklari faqat lug'aviy emas, balki operatsion va funksional jihatdan ham qarama-qarshilikni bildiradi.

Hozirga kelib ta'kidlash joizki, amaliy axborot –texnologiyalar interfeyslarida antonim terminlar ko'pincha belgilar, ikonlar yordamida vizual tarzda ham aks ettirilmoqda.

🔒 (qulflash) ↔ 📄 (ochish);

↑ (yuborish) ↔ ↓ (yuklab olish);

▶ (boshlash) ↔ □ (to'xtatish).

Bu ikonografik qarama-qarshiliklar foydalanuvchining axborotni tez tushunishga yordam beradi va semantik antonimiyaning yorqin ifodasidir.

O'zbek tili axborot texnologiyalari terminlarida antonimiya ko'p shaklda namoyon bo'ladi: leksik, morfologik, semantik, sintaktik va vizual. Mazkur antonim birliklar sohaning kommunikativ samaradorligini oshiradi, foydalanuvchi uchun mantiqiy tuzilma yaratadi va terminologik aniq ifodani ta'minlashga xizmat qiladi. Ularning shakllanish mexanizmlarini chuqur o'rganish o'zbek AT tilini rivojlantirish, tarjimada aniqlikni ta'minlash hamda til korpuslari uchun asos yaratadi.

Tilshunoslikda antonimlar o'zaro qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan so'zlarni ifodalash uchun qo'llaniladi. Ular tilning boyligini ta'minlashda, ifodalarni aniq va tushunarli qilishda muhim rol o'ynaydi. Qarama-qarshi so'zlar yordamida ular o'rtasidagi munosabat yanada mufassal holatga keladi, bu esa nutq jarayonida mantiqiylikni ta'minlaydi.

Zamonaviy kommunikativ makon va axborot texnologiyalari vositalari tilshunoslikni yangi bosqichga olib chiqmoda. Bu o'zgarishlar, ayniqsa, terminologik birliklarning kommunikativ vazifasini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan biri – antonimlarning matndagi roli. Axborot texnologiyalari matnlarida antonim birliklar faqat semantik oppozitsiya emas, balki kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi.

M.Lyons antonimlarni semantik munosabatning maxsus ko'rinishi deb atab, ularni ikki qutbli oppozitsiyalar asosida tasniflaydi. J.Lyons va J.Kruyz hamda boshqa olimlarning fikriga ko'ra, antonimlar ko'proq semantik, mantiqiy va pragmatik jihatlardan qaraladi. Bular ichida ayniqsa kontrak, komplementar va konvers munosabatlar muhim o'rin egallaydi.

AT sohasiga oid matnlar (foydalanuvchi interfeysi, dasturiy hujjatlar, onlayn yordam, texnik tavsiflar, API hujjatlari va boshqalar) jihatdan axborot berish, buyruq berish, ko'rsatma berish yoki ogohlantirish kabi kommunikativ maqsadlarga xizmat qiladi. Matnlarda antonim birliklar matnning ichki bog'liqligini, izchilligini, kontrastini va tushunarlilikini ta'minlovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Antonimlar AT matnlarida bir nechta kommunikativ funksiyalarni bajaradi:

Oppozitsion izchillikni ta'minlash – matn ichida turli voqelik yoki holatlarni mantiqan qarama-qarshi qo'yish orqali kontekstual bog'liqlikni kuchaytiradi.

Kognitiv sodallashtirish – foydalanuvchi e'tiborini muhim tafovutlarga jalb qilish orqali qaror qabul qilish jarayonini soddallashtiradi. Bu, asosan, interfeyslar va qo'llanmalar tilida seziladi.

Ikkilik mantiq asosida strukturalash – AT terminologiyasida antonimlar ko'pincha binarlik munosabatlarga asoslanadi. Bu esa algoritmik jarayonlarda axborotni aniq va tushunarli tarzda ifodalashga yordam beradi.

Pragmatik samaradorlik – matnning amaliy ahamiyatini kuchaytiradi, ya'ni foydalanuvchiga qanday holatda, qanday javob berilishini mantiqan tushuntiradi.

Nazariy manbalarda komplementar antonimlar faqat ikkita o'zaro istisno holatni bildiradi, bu esa AT matnlarida aniq va ishonchli ko'rsatmalarni berishda muhim vositadir. Kontrar antonimlar esa nisbiylikni bildiradi va foydalanuvchiga turli darajadagi holatlarni baholash imkonini beradi. Ular yordamida interfeyslar dizaynida yoki texnik taqqoslamalarda gradatsiyalash, baholash va tanlov mexanizmlari ifodalanadi.

AT matnlarida pragmatik jihatdan antonimlar so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqotni soddallashtiradi. Bu til birliklari foydalanuvchi uchun tushunarlilik va texnik obyektlar uchun muvofiqlik nuqtayi nazardan muhim hisoblanadi. Antonimlar nafaqat semantik birlik, balki kommunikativ akti kuchaytiruvchi pragmatik vosita sifatida qaralishi zarur.

Yuqorida antonimiya tilshunoslikda leksik-semantik hodisa sifatida qaralishi haqida ma'lumot berilgan edi. Biroq zamonaviy tilshunoslikda bu hodisa matn va nutq doirasida – ya'ni pragmatik kontekstdagi roli nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, axborot texnologiyalari matnlarida antonim birliklarning qo'llanilishi faqatgina qarama-qarshi ma'nolarni ifodalash emas, balki foydalanuvchiga tushunarli, aniq va samarali axborotni yetkazish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Pragmatika – til birliklarining ma'no anglatish qobiliyatini muallif, tinglovchi, vaziyat va matn munosabatlarida o'rganadi. Bundan kelib chiqib, har bir til birligi, jumladan antonimlar ham, kommunikativ maqsadga xizmat qiluvchi vosita deb qaraladi. Masalan, informatika va dasturiy ta'minotga oid matnda antonimlarning qo'llanilishi orqali foydalanuvchiga tanlov, farqliik, ogohlantirish, chegaralash yoki qaror qabul qilish imkoniyatini taqdim etadi. Shunday qilib, antonim birliklar muloqotda diskursiv strategiya vositasiga aylanadi.

Axborot texnologiyalari matnlarida antonimla o'zaro interaktivlikni kuchaytiradi. Ular o'quvchining e'tiborini bir hodisani boshqa hodisadan ajratish yoki tafovutni aniqlashga yo'naltiradi. Pragmatik jihatdan qaralganda, antonimlar axborotni to'g'ri qabul qilish hamdan mantiqiy strukturasini mustahkamlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu foydalanuvchiga matndagi muhim tafsilotlarni tez aniqlash imkonini beradi.

Matn ichidagi antonim birliklar turli segmentlar orasidagi bog'liqlikni hamda matn ichki birligining izchil holatini ta'minlashda ishtirok etadi. Antonim birliklar ko'pincha nutq aktining ijtimoiy-psixologik ta'sirini oshiradi. Ular orqali muallif taklif, buyruq, ogohlantirish yoki rag'batlantirish kabi kommunikativ maqsadni kuchaytiradi.

Antonimlar faqat semantik jihatdan emas, kontekstual talqin orqali ham ifodalanadi. Pragmatik yondashuvda antonimlar ko'pincha implikatsion munosabat (ya'ni yashirin ma'no yoki taxmin) hosil qiladi. Bu o'z navbatida foydalanuvchining axborotga bo'lgan munosabatini shakllantiradi.

O'zbek tilidagi axborot texnologiyalari terminlarida antonimiya masalasi keng va ko'p qirrali bo'lib, semantik, morfologik, pragmatik va kognitiv jihatlarni qamrab oladi. Bu terminlar qarama-qarshi munosabatlar orqali foydalanuvchiga texnik holat, tanlov imkoniyati va muqobil yechimlar haqida aniq axborot beradi. Shu bois antonim birliklarni tizimli tahlil qilish, ularning kommunikativ va semantik funksiyalarini o'rganish o'zbek tilshunosligining dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sarova R. Leksik-semantik munosabatning turlari. O'quv qo'llanma. T: O'qituvchi, 1996. - B.49
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Darslik. T: Universiteti, 2006. – B.476 (79)
3. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. Darslik. T, 2007. – B. 94
4. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – B.30.
5. Нурманова Д. Ўзбек тили сатҳларида мўътадиллашув. Ф.ф.док.дисс. – Андижон, 2022. – Б.34
6. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili (kirish, fonetik sath, leksik-semantik sath). Darslik. T: Excellent Polygraphy, 2020. – B.164
7. Lyons, J. *Semantics*. Cambridge University Press, 1977. – P.45